



## THEORETICAL AND PRACTICAL ASPECTS OF THE EXECUTION OF CORRECTIVE LABOR PUNISHMENT

**Kalbaeva Eldora Uzakhbaevna**

3rd-year student of the Faculty of Law,  
Qaraqalpaq State University, named Bedakh

**Dauletbaeva Aynur Bakhramovna**

2nd year student of the Faculty of Law of  
Karakalpak State University named after Berdakh

eldorakalbaeva@gmail.com

dawletbaevaaynur0@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15481038>

### ARTICLE INFO

Received: 15<sup>th</sup> May 2025

Accepted: 20<sup>th</sup> May 2025

Online: 21<sup>th</sup> May 2025

### KEYWORDS

Democratic rule-of-law state, Strategy of Actions, offender, convicted person, Probation institute, suspended sentence, psychiatric or physiological treatment.

### ABSTRACT

*This article explores the legal foundations, essence, and application procedures of the institution of corrective labor punishment as defined by the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan. It analyzes the educational significance of this type of punishment, which aims to reform the offender by engaging them in socially beneficial labor without isolating them from society.*

## ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛНЕНИЯ НАКАЗАНИЯ В ВИДЕ ИСПРАВИТЕЛЬНЫХ РАБОТ

**Калбаева Элбдора Узакбаевна**

3-й курс студентка Юридического факультета

Каракалпакского государственного университета, по имени Бедакх

**Даулетбаева Айнура Бахрамовна**

2-й курс студентка Юридического факультета

Каракалпакского государственного университета имени Бердаха

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15481038>

### ARTICLE INFO

Received: 15<sup>th</sup> May 2025

Accepted: 20<sup>th</sup> May 2025

Online: 21<sup>th</sup> May 2025

### KEYWORDS

Демократическое правовое государство, Стратегия действий, виновный, осужденный, институт probation, условное осуждение, психиатрическое или физиологическое лечение.

### ABSTRACT

*В статье раскрываются правовые основы, содержание и порядок применения института исправительных работ в соответствии с Уголовным кодексом Республики Узбекистан. Также проанализировано воспитательное значение данного вида наказания, направленного на исправление правонарушителя путем привлечения к общественно полезному труду без изоляции от общества.*



## AXLOQ TUZATISH ISHLARI JAZOSI IJROSINING NAZARIY VA AMALIY MASALALARI

**Kalbaeva Eldora Uzaqbaevna**

Bedaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Yuridika fakulteti 3-kurs talabasi

**Dauletbaeva Aynur Bakhramovna**

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Yuridika fakulteti 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15481038>

### ARTICLE INFO

Received: 15<sup>th</sup> May 2025

Accepted: 20<sup>th</sup> May 2025

Online: 21<sup>th</sup> May 2025

### KEYWORDS

Demokratik-huquqiy davlat, Harakatlar strategiyasi, aybdor, sudlangan shaxs, Probatsiya instituti, shartli hukm, psixiatrik yoki fiziologik davolanish.

### ABSTRACT

*Maqolada O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan axloq tuzatish ishlari jazosi institutining huquqiy asoslari, mazmuni va amaliyotda qo'llash tartibi ochib berilgan. Shuningdek, jazoning jinoyatchini jamiyatdan ajratmagan holda foydali mehnatga jalb etish orqali tuzatishga yo'naltirilgan tarbiyaviy ahamiyati tahlil qilingan.*

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, demokratik-huquqiy davlat, rivojlangan fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lini tanlab, bu ezgu maqsadga erishish yo'lida bir qancha islohotlarni amalga oshirmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 2017-yil 7-fevralda qabul qilgan PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, jamiyatni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanishi ham ushbu islohotlarning biri hisoblanadi<sup>1</sup>.

Islohotlar natijasida davlatimizda inson huquq va erkinliklarini har tomonlama himoya qilish, shuningdek, jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan jazo tayinlashda tayinlanadigan jinoiy jazolar tizimini xalqaro standartlarga mos ravishda takomillashtirish bo'yicha ko'plab ishlar amalga oshirildi. Masalan, jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish jazosi o'rniga ularni jamiyatdan ajratmagan holda tarbiyalash, takroran jinoyat sodir etishining oldini olishda samarali bo'lgan muqobil jazo choralarini qo'llashni asosiy o'zgarishlardan biri sifatida ko'rishimiz mumkin.

Bunday muqobil jazolardan biri - O'zbekiston Respublikasining Jinoyat qonunchiligiga ko'ra, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan axloq tuzatish ishlari jazosidir.

Axloq tuzatish ishlari - bu shaxsning ish haqining o'n foizidan o'ttiz foizigacha miqdorini davlat daromadi hisobiga ushlab qolgan holda uni mehnatga majburan jalb etishdan iborat jazo turidir. Axloq tuzatish ishlari olti oydan uch yilgacha muddatga belgilanadi<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида» ги Фармони 2017 йил 7 февраль, ПФ-4947-сон (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон).

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси // [URL:https://lex.uz/docs/111453](https://lex.uz/docs/111453)



Jazoning ahamiyati shundaki, axloq tuzatish ishlari jazosi o'zida insonparvarlik tamoyilini namoyon etadi. Sudlanuvchiga bu jazoni qo'llash orqali u shaxsni ozodlikdan mahrum qilmaydi, o'z oilasida, uyidan ajralmagan holda o'zi ilgari ishlagan muassasada (korxonada, tashkilotda) ishlaydi<sup>3</sup>. Axloq tuzatish ishlari jazosi tayinlangan shaxs o'z ish haqisining ma'lum qismini sud hukmida belgilangan miqdorida va muddat davomida davlat foydasiga o'tkazadi. Bizningcha, qonun chiqaruvchi bu orqali sudlanuvchiga moddiy ta'sir etish maqsadini ko'zlaydi va bir vaqtning o'zida mahkum ham daromadining davlat foydasiga ushlab qolinishi orqali o'ziga tayinlangan jazoni ijro etadi va o'z ish joyida yoki boshqa tashkilotda majburiy mehnat qilishi natijasida jamiyattan ajralmagan holda mehnat va boshqa da ijtimoiy munosabatlarini saqlab qoladi.

Axloq tuzatish ishlari shaxslarga faqat asosiy jazo sifatida qo'llaniladi va sud uni faqat O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi maxsus qismining tegishli moddasi sanksiyasida ko'rsatilgan hollardagina tayinlanadi. Masalan, Jinoyat kodeksining 126-moddasi (Ko'p xotinli bo'lish), 148-moddasi (Mehnat qilish huquqini buzish) va bir qator moddalari sanksiyalarida bunday jinoyat sodir etgan shaxslarga axloq tuzatish ishlari jazosi alternativ jazo sifatida ko'rsatib o'tilgan.

Shuningdek, axloq tuzatish ishlari shaxslarga nisbatan quyidagi hollarda ham qo'llanilishi mumkin:

- Aybdor jarima jazosini ijro etishdan bosh tortgan taqdirda, jazoning ijro etilmagan qismi Jinoyat kodeksining 44-moddasiga muvofiq axloq axloq tuzatish ishlariga almashtirilganda;
- Jinoyat kodeksining 57-moddasiga muvofiq, yengilroq jazo tayinlanganda qo'llanilishi mumkin;
- Jinoyat kodeksining 74-moddasiga muvofiq, ozodlikdan mahrum qilish jazosining o'talmagan qismini yengilroq turdagi jazo bilan almashtirilganda qo'llaniladi<sup>4</sup>.

Axloq tuzatish ishlari jazosini mahkum o'z ish joyida, lekin, ko'p hollarda o'zining avvalgi lavozimidan boshqasiga o'tkazilgan holda o'taydi. Agar shaxs jinoyatni mansab vakolatiga bog'liq holda sodir etgan bo'lsa, u o'z ish joyida boshqa vazifaga o'tkazilishi ham mumkin. Bu orqali har ikkala holatda ham sudlanuvchining takroran bunday jinoyat sodir etishining oldi olinadi.

Jinoyat-ijroiya kodeksiga muvofiq, mahkum jazoni o'z ish joyida, agar doimiy ish joyiga ega bo'lmasa, sud belgilagan joyda o'taydi. Shuningdek, Oliy Sud Plenumining qarorida "Axloq tuzatish ishlari odatda ish joyida o'tash sharti bilan tayinlanishi lozim. Shu bilan birga, shaxs o'z kasbi yoki xizmat vazifasini bajarish bilan bog'liq holda jinoyat sodir etib, uning avvalgi ish joyida qoldirilishi jazoning tarbiyaviy ahamiyati pasayishiga olib kelishi mumkin bo'lsa, axloq tuzatish ishlarini ushbu jazoni ijro etuvchi organ tomonidan belgilangan joyda o'tash tayinlanishi mumkin"<sup>5</sup>.

<sup>3</sup> Rustambayev M.H. Ozbekiston Respublikasi Jinoyat huquqi kursi. Umumiy qism. T. 2. Jazo togrisida talimot: Darslik. - Toshkent: ILM ZIYO. 2011. - B. 40.

<sup>4</sup> Rustambayev M.H. Ozbekiston Respublikasi Jinoyat huquqi kursi. Umumiy qism. T. 2. Jazo togrisida talimot: Darslik. - Toshkent: ILM ZIYO. 2011. - B. 40.

<sup>5</sup> Ozbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi "Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti togrisida"gi 1-sonli qarori, 20-band, 1-xatboshi // Toplam, 2-jild. - 231-b.



Sud ayrim jiddiy sabablarga ko'ra, jazoni mahkum ishlaydigan joyda o'tash maqsadga nomuvofiq deb topsa, u buning asoslarini o'z hukmda ko'rsatishi va jazoning ijrosini nazorat qiluvchi probatsiya organining belgilashi orqali umumiy asoslarda o'talishini ko'rsatadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, axloq tuzatish ishlari jazosini quyidagicha ikki turga ajratishimiz mumkin:

1) sudlanuvchi jazoni o'zi ishlaydigan joyda o'taydi;

2) jazoni jazo ijrosini nazorat qiluvchi organ belgilab bergan joyda o'taydi<sup>6</sup>. Jazoning qaysi joyda o'tash lozimligini esa faqat sud tomonidan belgilanadi.

**Sudlanuvchining o'z ish joyi** - uning mehnat shartnomasi asosida ishlayotgan faoliyati, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati singari mustaqil ravishda amalga oshiradigan faoliyati hisoblanadi. Agar shaxs doimiy ish joyiga ega bo'lsa, axloq tuzatish ishlari jazosi shu joyda o'taladi. Jazoning ijrosini va sudlanuvchini har tomonlama qayta tarbiyalash nuqtai nazaridan jazoni o'zi ishlaydigan joyda belgilash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu orqali, birinchidan, sudlanuvchining mehnat qilishi uchun boshqa ish joyini izlash orqali jazoning ijro etilishini kechiktirilishi havfi bartaraf etilsa, ikkinchidan, shaxs uni yaxshi biladigan jamoatchilikning doimiy nazorati ostida o'taydi. Jazoni ijro etish joyi sifatida O'zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligiga ko'ra, turli mulkchilik shaklidagi korxona, muassasa va tashkilotlar, shuningdek boshqa normativ hujjatlarga asosan tartibga solinadigan korxonalar, muassasalar va tashkilotlar ham bo'lishi mumkin.

Agar shaxs hukm chiqarish vaqtida hech qayerda ishlamasa, doimiy ish joyi bo'lmasa, mavsumiy ishlarda ishlasa, shuningdek doimiy ish joyi bo'lishiga qarzmasdan, ish jarayonida o'zini yomon ko'rsatgan, yani o'zi ishlaydigan joyda o'rnatilgan mehnat normalarini buzgan shaxslarga tomonidan axloq tuzatish ishlari jazosi umumiy asoslarda o'talishi belgilanadi.

Axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxslar ish haqisidan sud hukmda belgilagan miqdorda va muddat davomida ushlab qolinadi. Uning ish yoki xizmat haqisiga mehnat natijasida olingan xizmat haqi, tadbirkorlik faoliyati natijasida olingan daromad, grant, stipendiya va boshqalar kiradi. Lekin, ayrim to'lovlar, masalan, pensiya, ijtimoiy yordam sifatida olinadigan to'lov, ijtimoiy sug'urta va boshqalar xizmat haqiga kirmaydi va davlat daromadiga ushlab qolinishi mumkin emas.

Axloq tuzatish ishlari haqida so'z borganda, uning mazmuniga ham to'xtalishimiz zarur. Bu borada olim P.G. Ponomarevning quyidagicha fikr bildirgan, ya'ni u jinoyat uchun jazo sifatida axloq axloq tuzatish ishlari mazmuniga quyidagilarni kiritadi: 1) mehnatga majburlash; 2) asosiy ish joyiga ega bo'lmagan shaxslarni mehnatga jalb qilish; 3) jazoni mahalliy o'zini o'zi boshqarish organi belgilagan joylarda, lekin sudlangan shaxs yashaydigan hududda o'tash; 4) mehnatga ma'lum muddatga jalb qilish; 5) ish haqining muayyan ulushini davlat foydasiga undirish". Biz olimning fikrlariga to'liq qo'shilamiz, chunki u jinoyat qonunchiligida jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan axloq axloq tuzatish ishlari jazosining mazmuni to'liq ochib berilgan<sup>7</sup>.

<sup>6</sup> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2012 йил 18 октябрдаги “Өриндошлик асосида ҳамда бир неча касбда ва лавозимда ишлаш тартиби тўғрисидаги низомини тасдиқлаш ҳақида”ги 297-сон қарори // [URL:https://lex.uz/docs/2070161](https://lex.uz/docs/2070161)

<sup>7</sup> Комментарий к Уголовному кодексу Российской Федерации. / Под ред. А.И.Парога. - М.: Проспект, 2004. - С. 92.



Shuningdek, ayrim toifadagi shaxslarga nisbatan ushbu jazo turi qo'llanilmaydi. Bularga homilador ayollar, uch yoshga to'lmagan bolasi bor ayollar, mehnatga layoqatsizlar, pensiya yoshiga yetkan shaxslar va harbiy xizmatchilar kiradi. Huquqshunos olim M.X. Rustambayev "Axloq tuzatish ishlari, shuningdek, mahkumlarning mehnatga jalb etilishini talab qilishi haqida to'xtalib, bunday jazo obyektiv holatlar tufayli mehnat faoliyatini amalga oshira olmaydigan shaxslarga nisbatan qo'llanishi mumkin emas", deb ta'kidlaydi<sup>8</sup>.

Axloq tuzatish ishlari jazosini otash vaqtida sudlangan shaxs mehnatga yaroqsiz bo'lib qolsa yoki pensiya yoshiga yetgan bo'lsa, shuningdek homiladorlik va tug'ish ta'tiliga chiqqan bo'lsa, Probatsiya xizmatining tavsiyasiga ko'ra sud tomonidan Jinoyat kodeksining 75-moddasiga asosan jazoni o'tashdan butunlay ozod etiladi<sup>9</sup>.

Mahkum o'ziga tayinlangan jazo muddatining jami o'ndan bir qismidan ko'prog'ini o'tashdan bosh tortgan holda sud tomonidan uning o'talmagan qismini shu muddatga ozodlikni cheklash yoki ozodlikdan mahrum qilish kabi og'irroq jazo turlaridan biri bilan almashtiradi.

Ko'plab xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligida axloq tuzatish ishlari bilan bir qatorda ushbu jazoga yaqinroq boshqa jazo turlari ham nazarda tutilgan. "Majburiy mehnat" (Rossiya Federatsiyasi, Latviya), "jamoat ishi" (Belarus Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston Respublikalari), "majburiy jamoat ishlari" (Armaniston Respublikasi), "jamiyat foydasiga haq to'lanmaydigan mehnat" (Moldaviya), "jamiyat uchun foydali mehnatga jalb qilish" (Gruziya) shular jumlasidandir.

Armaniston va Ukraina Jinoyat kodekslariga ko'ra, axloq tuzatish ishlarini o'tash davrida axloq axloq tuzatish ishlari tayinlanishi mumkin bo'lmagan holatlar yuzaga kelsa, shaxs jazodan ozod qilinishi yoki axloq axloq tuzatish ishlari yengilroq jazo bilan almashtirilishi mumkin. Biroq bunday norma O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida berilmagan<sup>10</sup>.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytadigan bo'lsak, jinoyat sodir etgan shaxslarga ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazo choralarining biri sifatida axloq tuzatish jazosini qo'llash - mahkumlarni axloq tuzatishning eng samarali usullaridan biri bo'lib, bunda mahkum jamiyatdan ajralmagan holda oilasi, yaqinlari va boshqalar bilan ijtimoiy aloqalarini va avvalgi ish joyida yoki doimiy yashash joyida ishlash orqali o'zining mehnat qikish bilan bog'liq ko'nlikmalarini oshirib boradi. Natijada, shaxs jazoni o'tab bo'lgandan song ham qayta jamiyatga qo'shilishi osonlashadi va tarbiyaviy jihatdan tuzaladi. Bu esa, mamlakatimizda va boshqa bir qator rivojlangan davlatlarda jinoiy jazolarni liberallashtirish orqali sudlangan shaxslarni jamiyatdan ajratmagan holda tarbiyalashdan katta ahamiyatga ega. Zero, har doim shaxsning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari va ularni ta'minlash - eng oliy qadriyatdir.

## References:

<sup>8</sup> Rustambayev M.H. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat huquqi kursi. Umumiy qism. T. 2. Jazo to'grisida talimot: Darslik. - Toshkent: ILM ZIYO. 2011. - B. 40.

<sup>9</sup> Халилов Д., Амиров Б. Пробация хизматининг озодликдан махрум этиш билан боғлиқ бўлмаган жазоларни ижро этишдаги ҳуқуқ ва мажбуриятлари //Наука и технология в современном мире. – 2022. – Т. 1. – №. 7. – С. 144-162.

<sup>10</sup> Z.Y., To'rabayeva. Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jinoiy jazolar tizimi [Matn]: o'quv qo'llanma / To'rabayeva Ziyoda Yakubovna. -T.: TDYU nashriyoti, 2023. -88 b. - B. 49.



1. O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 7-fevraldagi Harakatlar strategiyasi asosida mamlakatni har tomonlama rivojlantirish bo'yicha belgilangan asosiy yo'nalishlar. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-yil, 6-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. // Elektron manba: <https://lex.uz/docs/111453> (murojaat qilingan sana: 2025-yil 15-may).
3. Rustambayev M.H. Ozbekiston Respublikasi Jinoyat huquqi kursi. Umumiy qism. T. 2. Jazo togrisida talimot: Darslik. - Toshkent: ILM ZIYO. 2011. - B. 40.
4. Rustambayev M.H. Ozbekiston Respublikasi Jinoyat huquqi kursi. Umumiy qism. T. 2. Jazo togrisida talimot: Darslik. - Toshkent: ILM ZIYO. 2011. - B. 40.
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi "Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida"gi qarori. // Qarorlar to'plami. II jild. 231-bet.
6. "O'rinbosarlik asosida va bir nechta lavozimda ishlash tartibi to'g'risida"gi nizom. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 18-oktabrdagi 297-son qarori. // Elektron manba: [URL:https://lex.uz/docs/2070161](https://lex.uz/docs/2070161) (murojaat qilingan sana: 2025-yil 15-may).
7. Комментарий к Уголовному кодексу Российской Федерации. / Под ред. А.И.Парога. - М.: Проспект, 2004. - С. 92.
8. Rustambayev M.H. Ozbekiston Respublikasi Jinoyat huquqi kursi. Umumiy qism. T. 2. Jazo togrisida talimot: Darslik. - Toshkent: ILM ZIYO. 2011. - B. 40.
9. Xalilov D., Amirov B. Ozodlikdan mahrum etishga aloqador bo'lmagan jazolarning ijrosi jarayonida probatsiya xizmatining huquqiy vakolatlari. // Zamonaviy dunyoda fan va texnologiya ilmiy jurnali. 2022-yil, 1-tom, 7-son. 144,162-betlar.
10. Z.Y., To'rabayeva. Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jinoiy jazolar tizimi [Matn]: o'quv qo'llanma / To'rabayeva Ziyoda Yakubovna. -T.: TDYU nashriyoti, 2023. -88 b. - B. 49.